

O‘ZBEKISTON TIKUV-TRIKOTAJ SANOATINING RIVOJLANISH HOLATI VA KORXONALARNING IQTISODIY FAOLIYATI TAHLILI

Alimova Xurshida Nurmaxamatovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası assistenti

ORCID: 0009-0005-8019-6377

Email: alimovaaxurshida@gmail.com

Annotatsiya

O‘zbekiston tikuv-trikotaj sanoatining zamonaviy rivojlanish holati hamda korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmining dinamikasi, tarmoqning eksport salohiyati, sanoat klasterlarining rivojlanishi, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining kengayishi yoritilgan. 2020-2025-yillar davomida kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmining o‘shish tendensiyalari asosida tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy faolligidagi o‘zgarishlar baholangan. Korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmi, sotishdan tushgan daromad, tannarx, foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi, investitsiyalar, eksport daromadlari va raqamlashtirish darajasi kabi ko‘rsatkichlarning ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tikuv-trikotaj sanoatining xomashyo eksportidan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish modeliga bosqichma-bosqich o‘tayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, vertikal integratsiyani rivojlantirish va xalqaro qiymat zanjirlariga faol integratsiyalashish tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillari sifatida belgilangan.

Kalit so‘zlar: tikuv-trikotaj sanoati, to‘qimachilik sanoati, kiyim-kechak ishlab chiqarish, tashkiliy-iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, eksport, sanoat klasterlari, raqamlashtirish, innovatsiyalar, qo‘shilgan qiymat, xalqaro qiymat zanjiri.

Abstract

This article examines the current state of development of the Uzbek garment and knitwear industry and analyzes the organizational and economic performance indicators of enterprises operating in the sector. The study focuses on the dynamics of textile and clothing production, export potential, development of industrial clusters, deeper processing of domestic raw materials, and the expansion of finished-product manufacturing. Changes in the production capacity and economic activity of the sector are assessed based on the dynamics of clothing production during 2020-2025. Particular attention is given to the main indicators used to assess the organizational and economic efficiency of garment and knitwear enterprises, including production volume, sales revenue, production costs, profit, profitability, labor productivity, investment, export revenues, and the level of digitalization. The findings indicate that Uzbekistan’s garment and knitwear industry is gradually moving from a raw-material-

oriented production model toward the production and export of finished products with higher added value. At the same time, digitalization of production processes, implementation of innovative technologies, development of vertical integration, and deeper integration into global value chains are identified as important factors for improving the competitiveness and economic efficiency of enterprises. The study concludes that further modernization of production and improvement of organizational management mechanisms can contribute to increasing labor productivity, export potential, value added, and the long-term competitiveness of Uzbekistan's garment and knitwear industry.

Keywords: garment and knitwear industry, textile industry, clothing production, organizational and economic efficiency, production volume, labor productivity, exports, industrial clusters, digitalization, innovation, value added, global value chains.

Аннотация

В статье исследуется современное состояние развития швейно-трикотажной промышленности Узбекистана и проводится анализ организационно-экономических показателей деятельности предприятий отрасли. Основное внимание уделено динамике производства текстильной и швейной продукции, экспортному потенциалу отрасли, развитию промышленных кластеров, углублению переработки отечественного сырья и расширению производства готовой продукции. На основе динамики производства одежды в 2020-2025 годах оцениваются изменения производственного потенциала и экономической активности отрасли. Особое внимание уделено основным показателям оценки организационно-экономической эффективности швейных и трикотажных предприятий, включая объем производства, выручку от реализации, себестоимость продукции, прибыль, рентабельность, производительность труда, объем инвестиций, экспортную выручку и уровень цифровизации. Результаты исследования показывают, что швейно-трикотажная промышленность Узбекистана постепенно переходит от сырьевой модели производства к производству и экспорту готовой продукции с более высокой добавленной стоимостью. Одновременно цифровизация производственных процессов, внедрение инновационных технологий, развитие вертикальной интеграции и более глубокое включение предприятий в глобальные цепочки создания стоимости рассматриваются как важнейшие факторы повышения конкурентоспособности и экономической эффективности предприятий. Сделан вывод о том, что дальнейшая модернизация производства и совершенствование организационно-экономических механизмов управления будут способствовать повышению производительности труда, экспортного потенциала, добавленной стоимости и долгосрочной конкурентоспособности швейно-трикотажной промышленности Узбекистана.

Ключевые слова: швейно-трикотажная промышленность, текстильная промышленность, производство одежды, организационно-экономическая эффективность, объем производства, производительность труда, экспорт,

промышленные кластеры, цифровизация, инновации, добавленная стоимость, глобальные цепочки создания стоимости.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, to'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj sanoati mamlakatlarning eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish hamda xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoqning rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki xomashyoni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uning eksportini kengaytirish bilan ham belgilanadi.

O'zbekistonda ham to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda[1]. Mamlakatda paxta xomashyosini qayta ishlashning keyingi bosqichlarini rivojlantirish, ip-kalava, mato, trikotaj mahsulotlari va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishni kengaytirish orqali yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati kengayib, mahalliy korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi ishtiroki kuchaymoqda.

O'zbekiston tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 7,9 trln so'mdan 2025-yilda 43,1 trln so'mgacha oshgan. Ushbu ko'rsatkich tarmoqda ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, yangi korxonalar tashkil etilishi, investitsiyalarning jalb qilinishi va ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiya qilinishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan bir qatorda rentabellik, mehnat unumdorligi, tannarx, sotishdan tushgan daromad, eksport hajmi va investitsion faollik kabi ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish zarur[2].

O'zbekiston tikuv-trikotaj sanoatining rivojlanishi, to'qimachilik xomashyosini chuqur qayta ishlash, korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda sanoat klasterlarini shakllantirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda tarmoqning ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy va eksport faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda, innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirishning sanoat korxonalari raqobatbardoshligiga ta'siri ham alohida yo'nalish sifatida qaralmoqda[3].

Xorijiy tadqiqotchilardan G. Gereffi global qiymat zanjirlari konsepsiyasi doirasida rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish korxonalarining xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishining ahamiyatini asoslab bergan[10]. Uning ilmiy qarashlariga

ko'ra, korxonalarining xalqaro qiymat zanjirlarida ishtirok etishi faqat eksport hajmini oshirish bilan cheklanmay, texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va yangi ishlab chiqarish kompetensiyalarining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalarining xalqaro brendlar bilan hamkorligini va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirish imkoniyatlarini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

M. Porter korxonalarining raqobatbardoshligini ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyat, resurslardan foydalanish va qiymat yaratish jarayonlari bilan bog'laydi. Uning raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra, korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi faqat arzon mehnat yoki xomashyo mavjudligi bilan emas, balki yuqori unumdorlik, texnologik yangilanish, mahsulot sifati va innovatsiyalarni boshqarish qobiliyati bilan belgilanadi[4]. Bu fikr O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalarini baholashda mehnat unumdorligi, rentabellik, ishlab chiqarish tannarxi, texnologik yangilanish va eksport ko'rsatkichlarini birgalikda o'rganish zarurligini ko'rsatadi[7].

J. Barney korxonaning barqaror raqobat ustunligini uning ichki resurslari va kompetensiyalari bilan izohlaydi. Resurslarga asoslangan yondashuvga ko'ra, korxonaning moddiy va nomoddiy resurslari, texnologik imkoniyatlari, inson kapitali, boshqaruv salohiyati va innovatsion qobiliyati uning bozordagi mavqeyini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Mazkur nazariy yondashuv tikuv-trikotaj korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki ishlab chiqarish quvvatlari, mehnat resurslari, texnologik jihozlar va boshqaruv salohiyati bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi[8].

METODOLOGIYA


O'zbekiston tikuv-trikotaj sanoatining rivojlanish holatini, ishlab chiqarish dinamikasini hamda korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini kompleks baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati, moliyaviy natijalari, mehnat unumdorligi, investitsion faolligi, eksport ko'rsatkichlari va qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

TAHRIR VA NATIJALAR

O'zbekistonda tikuvchilik va trikotaj sanoati ishlab chiqarish sektorida muhim o'rin egallaydi hamda tobora mamlakatning asosiy eksportga yo'naltirilgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Mazkur sektorning rivojlanishi O'zbekistonning paxta va boshqa to'qimachilik xomashyolarini mamlakat ichida qayta ishlash darajasini oshirish, tayyor kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish hamda mahalliy korxonalarining xalqaro qiymat zanjirlaridagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan strategiyasi bilan chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda ushbu sanoat asosan xomashyoga yo'naltirilgan modeldan yuqori qo'shilgan qiymatga ega to'qimachilik va tayyor kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o'tib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi hissasi 10 foizdan yuqori bo'lib, so'nggi yillarda ishlab chiqarish sanoati tarkibida to'qimachilik mahsulotlarining o'rtacha ulushi 16,6 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, 1-rasmدا ko'rsatilganidek, O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2017-yilda 16 763 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, ikki yil o'tib, 2019-yilda sezilarli darajada oshib, 29 946,6 mlrd so'mga yetgan. 2022-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 62 850,7 mlrd so'mni tashkil etib, ishlab chiqarish hajmida katta o'sish yuz berganini ko'rsatgan. Ikki yil o'tib, 2024-yilda esa to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshib, 89 489 mlrd so'mga yetgan.

2022-yilda ushbu ko'rsatkich qariyb ikki baravar oshib, 23 087,8 mlrd so'mga yetgan. 2024-yilga kelib esa kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmi 31 906,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu mazkur segmentda yangi texnologiyalar, jumladan, raqamli marketing texnologiyalarining joriy etilishi natijasida sezilarli o'sish yuz berganini ko'rsatadi. To'qimachilik mahsulotlari eksporti ham o'sib bormoqda. Bunga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, tikuvchilik, trikotaj va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tobora chuqurroq anglab borishi, shuningdek, fast fashion yo'nalishiga e'tiborning kuchayishi sabab bo'lmoqda. Ushbu jarayonlar O'zbekistonning ichki bozorlarida raqobatbardoshlikni saqlab qolish va xorijiy mamlakatlarga eksport salohiyatini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmi¹

Tikuvchilik va trikotaj korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, mehnat unumdorligi, investitsion

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

faollik va eksport raqobatbardoshligini aks ettiruvchi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholash mumkin. Mazkur tadqiqot doirasida eng muhim ko‘rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarish hajmi, sotishdan tushgan daromad, ishlab chiqarish tannarxi, yalpi va sof foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, eksportdan tushgan daromad, investitsiyalar hajmi va raqamlashtirish darajasi kiradi.

O‘zbekiston tikuvchilik sanoatining muhim xususiyatlaridan biri vertikal integratsiyalashgan ishlab chiqarishning rivojlanishidir. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashning kengayishi korxonalarga paxta tolasi va ip-kalavadan trikotaj matolar, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishga o‘tish imkonini bermogda. Bu mamlakat hududida yaratiladigan qo‘shilgan qiymatni oshirish hamda nisbatan past qo‘shilgan qiymatga ega oraliq mahsulotlar eksportiga qaramlikni kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi.

1-jadval

O‘zbekistonda kiyim-kechak ishlab chiqarish dinamikasi, 2020-2025-yillar¹

Yil	Kiyim-kechak ishlab chiqarish, trln so‘m	O‘sish ko‘rsatkichi, foizda
2020	7,9	104,2
2021	10,7	122,3
2022	12,9	104,8
2023	17,8	109,8
2024	25,8	111,7
2025	43,1	21,7

Sanoat klasterlarining rivojlanishi ham tarmoqning tashkiliy tuzilmasini mustahkamladi. Korxonalar xalqaro brendlar bilan tobora faol hamkorlik qilmoqda hamda global ishlab chiqarish va ta‘minot zanjirlarida ishtirok etmoqda. Masalan, xalqaro brendlar bilan hamkorlik qiluvchi korxonalar 2024-yilda 12,9 trln so‘mlik 273 ming tonna mahsulot ishlab chiqargan; 435,4 mln AQSh dollarlik tayyor mahsulot eksport qilingan va ushbu korxonalarda 37,5 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilgan.

Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining ortib borishi alohida ahamiyatga ega. Xom paxta va oraliq to‘qimachilik materiallaridan tayyor kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarishga o‘tish korxonalarga qo‘shilgan qiymatni oshirish, xomashyoning har bir birligi hisobiga eksport daromadini ko‘paytirish hamda xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi. Shu sababli tikuvchilik va trikotaj korxonalarining faoliyat samaradorligini faqat ishlab chiqarish hajmi asosida emas, balki qayta ishlash darajasi, eksportdagi qo‘shilgan qiymat, rentabellik va mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlar asosida ham baholash lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston tikuv-trikotaj sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida jadal rivojlanib, ishlab chiqarish, bandlik, eksport va qo‘shilgan qiymat yaratishda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

tarmoqning rivojlanishi xomashyoni eksport qilishga yo'naltirilgan modeldan uni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o'tish bilan tavsiflanmoqda.

O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 16 763 mlrd so'mdan 2024-yilda 89 489 mlrd so'mgacha oshgan. Kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmining 2020-yildagi 7,9 trln so'mdan 2025-yilda 43,1 trln so'mgacha ko'payishi ham tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Mazkur o'sish yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, sanoat klasterlarining rivojlanishi, investitsiyalarning ko'payishi, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning kengayishi bilan bog'liq.

Tikuv-trikotaj korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmining o'sishini hisobga olish yetarli emas. Korxonalarning real samaradorligini aniqlash uchun sotishdan tushgan daromad, ishlab chiqarish tannarxi, yalpi va sof foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, investitsiyalar, eksport hajmi va raqamlashtirish darajasi kabi ko'rsatkichlarni kompleks ravishda baholash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston tikuv-trikotaj sanoatida vertikal integratsiya jarayonlarining kuchayayotganini ham ko'rsatadi. Paxta tolasi va ip-kalavadan boshlab trikotaj matolar, tayyor to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarishgacha bo'lgan yagona qiymat zanjirining shakllanishi mamlakat ichida yaratiladigan qo'shilgan qiymatni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tayyor mahsulot eksportining kengayishi korxonalarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasining to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. - Toshkent, 2019-2025.

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. The majority of industrial investments are directed towards the textile sector. - Toshkent, 2025. 2024-yilda ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan asosiy kapital investitsiyalarining 16,3 foizi to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarishga to'g'ri kelgan.

3. World Bank. Assessment of Textile Clusters in Uzbekistan. - Washington, D.C.: World Bank. Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi to'qimachilik klasterlari, paxtani qayta ishlash va mamlakatning xomashyo eksportidan tayyor to'qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari eksportiga o'tish jarayonini tahlil qiladi.

4. International Labour Organization (ILO). Third-Party Monitoring of Child Labour and Forced Labour during the Cotton Harvest in Uzbekistan. - Geneva: ILO.

5. International Trade Centre (ITC). Trade Map: Trade Statistics for International Business Development. - Geneva: International Trade Centre.

6. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector Growth and Competitiveness. - Washington, D.C.: World Bank.

7. Asian Development Bank. Uzbekistan: Country Partnership Strategy and Economic Development Reports. - Manila: Asian Development Bank.
8. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report. - Vienna: UNIDO.
9. McKinsey & Company. The State of Fashion: Global Fashion Industry Reports. - New York: McKinsey & Company.
10. Gereffi G. Global Value Chains in a Post-Washington Consensus World // Review of International Political Economy. - 2014. - Vol. 21. - No. 1. - P. 9-37.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**